




XALQ PEDAGOGIKASI

RAXMONOV AZAMAT RUZVONOVICH

XALQ PEDAGOGIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

RAXMONOV AZAMAT RUZVONOVICH

XALQ PEDAGOGIKASI

DARSLIK

TOSHKENT
"INNOVATSIYA-ZIYO"
2024

UDK:37.013(075)
KBK:74
R 30

Raxmonov A.R.
Xalq pedagogikasi. Darslik. – Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO" 2024. – 368 b.

Mazkur darslik "Xalq pedagogikasi" fanidan "60110100-Pedagogika" ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, Pedagogika fakultetining "Umumiy pedagogika" kafedrasida tamonidan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan. Xalq pedagogikasi darsligi ishlab chiqilishida xorijdagi yetakchi OTMLari foydalanadigan adabiyotlardan namuna olib yaratildi. "Xalq pedagogikasi" fani "60110100-Pedagogika" ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan dars mashg'ulotlari uchun ajratilgan. "Xalq pedagogikasi" fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarga xalqning asrlar davomida erishgan tarbiyaviy tajribalari tarixini analiz qilishni o'rganish, xalq tarbiya metodlarining xilma-xil ko'rinishlari, xalq pedagogikasi manbalari, milliy urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlar mazmun-mohiyati, dunyo va milliy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi, xalq pedagogikasi manbalarini didaktik jarayonga tatbiq etishni o'rgatishga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

X.I. Ibragimov

Qori Niyoziy ilmiy tekshirish instituti direktori professori, pedagogika fanlari doktori

M.Q. Raxmanova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-707-31-5

© Raxmonov A.R., 2024.
© "INNOVATSIYA-ZIYO", 2024.

KIRISH

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zbek xalqi ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos maktab yaratgan. Mamlakatimizda zardushtilik dini hukm so'rgan paytda ham ma'lum pedagogik mafkura mavjud bo'lganini "Avesto" kitobining bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarini mazmunidan bilishimiz mumkin.

Xalqimizning madaniy-ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida rivojlanib, takomillashgan va bu jarayonlar xalq pedagogikasida o'z aksini topib borgan. Bu haqida yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan." Demak xalq pedagogikasi xalq ommasining turli davrlar mobaynida turmush faoliyati jarayonida to'plangan boy tajribalari, axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy yetuklik borasidagi qarashlari va xulosalarini ifodalaydi, etnologiya, etnopsixologiya va etnopedagogika, qadrshunoslik, qadimshunoslik(arxeologiya), udumshunoslik va xalq og'zaki ijodining barcha yo'nalishlarini qamrab oladi, ulardagi axloqiy-ma'rifiy g'oyalarni o'rganadi. Xalq pedagogikasi asrlar davomida minglab avlodlarni tarbiyalash jarayonida yuzaga kelgan ilg'or axloqiy g'oyalar va tajribani o'zida umumlashtirgani uchun faqat tarixiy-madaniy qadriyat sifatidagina emas, balki zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Jamiatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirishni taqozo etayotgan bir paytda ta'lim-tarbiya borasida xalqimiz yaratgan pedagogik qarashlar va g'oyalar, milliy odob-axloq an'analari, milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish bugungi kunning muhim va dolzarb masalasidir.

Mazkur darslik aynan shu masalalarni keng va atroflicha yoritishga mo'ljallangan. Darslik xalq pedagogikasi fanining mazmun-mohiyati, tadqiqot obyekti, manbalari, maqsadi va

vazifalari, jamiyatimiz hayotida ushbu fanning tutgan o'rni va amaliy ahamiyati keng qamrovli yoritilgan. Darslikda xalq pedagogikasi manbalariga kiruvchi xalq og'zaki ijodi janrlarining tarbiyaviy ahamiyati, milliy urf-odatlar, an'analari, udumlar, xalq o'yinlari va o'yichoqlari, bayram va marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rni, xalq pedagogikasida oila tarbiyasi, yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari, islom dinining odob-axloq, ilm-fan haqidagi ta'limotlari, xalq pedagogikasida xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi, milliy me'morchilik, milliy musiqa, qo'shiqchilik, raqs san'ati va milliy teatrning axloqiy tarbiyadagi o'rni, o'zbek xalqining muamala madaniyati, axloqiy me'yorlari, xalq pedagogikasida tabiat va inson munosabatlari, sog'lom turmush tarzi masalalari alohida boblarida o'z aksini topgan.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlari va xalq tarbiyaviy an'alaridan o'quv-tarbiyaviy jarayonda foydalanish masalalari ham yoritilgan.

Shuningdek, har bir mavzudan keyin nazorat savollari, matnli topshiriqlar, "Siz buni bilasizmi?" va "Bu juda ham qiziq?" ruknlarida mavzu bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

XALQ PEDAGOGIKASI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida, milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida, milliy urf-odatlar, turli-tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odobli qilib tarbiyalash bilan bevosita bog'liq ekanini yoddan chiqarmaslik lozim. O'zbek xalq pedagogikasi ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. O'zbek madaniyati, sharqona milliy tarbiya nazariyasi va amaliyoti moziy-gacha borib yetgan tarixiy ildizlar orqali oziqlanadi.

Allomalarimiz «Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim» deya nasihat qiladilar, bu inson o'z tafakkuri yordamida ta'lim-tarbiya olishi, odob-axloq normalarini egallashi, o'zi yashayotgan jamiyat, insongarchilik xulq-atvoriga xos, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarni o'zida mujassamlashtirish lozimligini taqozo etadi.

Respublikamizda «Xalq pedagogikasi» fanini o'rganishga katta e'tibor bermoqda. Ayniqsa, bu fan pedagoglar, umumiy ta'lim maktablarining milliy sinflari o'qituvchilari uchun, oliy o'quv yurti talabalari uchun, aspirant va magistrilar uchun zarurdir.

Xalq pedagogikasi – ijtimoiy hayot va jamiyat taraqqiyotida muhim jarayon bo'lgan inson tarbiyasi, uning shakllanishi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishini o'rganish bilan birga xalqning qadimiy tarbiya usullarini, qo'shiq, topishmoq, maqol va o'yinlarini to'playdi, umumlashtiradi, tizimga soladi va ta'lim jarayoniga tatbiq etadi.

Xalq pedagogikasi tarbiyada oilaning muhim qirralarini ochib beradi. Oilada ota-onaning o'rne, ularga nisbatan farzandlar munosabatlari, bolalarni otalarining qudratiga ishonch ruhida tarbiyalash, onaning beqiyos mehnatlarini qadrlashga o'rgatish, tarbiyada hamma vaqt samara berib kelgan. Shu o'rinda Xalq pedagogikasi tarixiga nazar tashlab o'tish o'rinli. Buyuk pedagoglar

ko'proq xalqning pedagogik tajribalariga e'tibor qaratgan. Chunki xalq pedagogikasi tarbiya haqidagi fanni boyitadi va unga tayanch bo'lib xizmat qiladi.

X.X.Niyoziy «Xalq pedagogikasi zamirida pedagogika fani shakllangan, rivojlangan- deb ta'rif beradi. U yana o'zbek xalqi tarbiya sohasida o'ziga xos tizimga ega ekanini aytib o'tadi. X.X. Niyoziy fikricha xalqni tarixiy tarkib topishida xalq tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Hamzaning hikoyalarida, dramalarida, pesa va povestlarida xalq pedagogikasi o'z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining asrlar davomida shakllanib, rivojlanib boyib borishining fuqaro, Vatan taqdirida hal qiluvchi rolining boisi, birinchidan uning hayotiyliigi, ta'sirchanligi serqirra, serma'noligida bo'lsa, ikkinchidan uning bevosita xalq tomonidan mavjud hayot jarayonida jonli an'analarda yaratilishi, yashashi, hayot inson muammolarini qamrab olishi tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilgani uchinchidan, umuminsoniy yo'nalishga, umumbashariy g'oya – maqsadlarga qaratilgan bo'lganligidir.

Xalq pedagogikasi fani orqali, mutafakkir olimlar o'gitlaridan bahra olish va tarbiya jarayoniga tatbiq etish, qadriyatlar, udumlar urf-odatlariga sodiqlik, ilm olish, ustozlar qadriga etish, oila mustahkamligiga erishish, xalqqa muhabbat, hayotni sevish, milliy odob-axloq me'yorlariga itoat qilish kabi jihatlarni tarbiyalash amalga oshiriladi.

“Avesto”dagi ta'limiy-axloqiy g'oyalar

The avesta is the primary collection of sacred texts of the ancient Aryan religion known as Zoroastrianism, composed in the otherwise unrecorded Avestan language. The Avesta texts fall into several different categories, arranged either by dialect, or by usage. The principal text in the liturgical group is the Yasna, which takes its name from the Yasna ceremony, Zoroastrianism's primary act of worship, and at which the Yasna text is recited. The most important portion of the Yasna texts are the five Gathas, consisting of seventeyen hymns attributed to zoroaster himself. These hymns, together with five other short Old Avestan texts that are also part of the Yasna, are in the Old (or 'Gathic') avestan

language. The remainder of the Yasna's texts are in Younger avestan, which is not only from a later stage of the language, but also from a different geographic region.¹

Avesto o'zida dastlabki Zardushtiylik dini nomi bilan mashhur bo'lgan muqaddas matnlar to'plami iborat. Kitob o'sha davr lahchasida yozilgan. "Avesto" matnlari ma'lum tartibda joylashgan bo'lib, u murojaat mazmuniga ega. Avestoning asosiy qismi Yasna deb yuritiladi, Yasna atamasi marosim nomidan olingan. Zardushtiylikka bag'ishlangan madhiyalardan iborat. Yasnaning asosiy mazmuni 5 qismdan iborat bo'lib, ularning 17 bobi Gotlar deb yuritiladi. Yasnaning tarkibiy qismi bolgan eng qadimgi Avesto Avesto tilida yozilgan. Yasnaning matni parchalarida kichik Avesto bayon qilingan ma'lumotlar orqali nafaqat til haqida, balki o'sha hududga doir muhim geografik ma'lumotlar aks etgan.

Zardushtiylar hayotining Asosiy qism mazmuni xayrli ish, shirin so'z, olijanob o'y-fikrdan iborat bo'lgan. Insonning asosiy qism burchi adolatli turmush tarzi bo'lmog'i kerak. Yaxshilikning yomonlik ustidan g'alaba qilishini ko'zlab yashash kerak: yolg'on gapirmaslik, so'zning ustidan chiqmoq, faqat yaxshilik qilmoq. O'zbek xalqi bugungi mustaqillikni qo'lga kiritgan bir davrda otabobolar, ajdodlar erishgan yutuqlardan faxrlangan holda ularning boy tajribalarini chuqur tahlil va tadqiq etish puxta o'rganish zarur. Bu esa yoshlarda bobolar ishlaridan, nasl-nasabidan faxrlanish tuyg'ularini vujudga keltiradi va ular o'tmish an'alariga sodiq bo'lishga harakat qiladilar.

Tarbiya – doimiy va izchil takrorlash, ishontirish mevasidir. Boshqacha aytganda doimiy va izchil takrorlash, dalillar asosida tushuntirish ishonch tuyg'ulari hosil qilinadi. Shunday qilib, universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalar o'zbek xalq pedagogikasini quyidagi maqsadlarda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Birinchidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi sifatida milliy mafkura tamoyillarini egallaydi. Ikkinchidan, mutaxassis sifatida yosh avlodga milliy

¹ <https://en.wikipedia.org/wiki/Avesta>

g'oya va milliy mafkura mohiyatini tushuntira olish ko'nikmasini hosil qiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, "...biz kelajagimizni bugungi yoshlarga ishonib yashayapmiz. Bugungi talaba ertangi rahbardir. U qanchalik ma'naviy barkamol, qo'li, dili, vijdoni pok bo'lsa, kelajagimiz shu qadar buyuk bo'ladi". Bu esa siz bilan bizga, bo'lg'usi rahbarlarning tarbiyachilariga ko'p jihatdan bog'liq. Har bir shaxs, xalq va millatning o'ziga xos orzu-umidlari va ma'naviy qarashlari bo'ladi. Ular orasida ta'lim va tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj alohida o'rinni egallaydi. Chunki har bir sog'lom insonda tinmay bilim olib turish ehtiyoji mavjud. Aslida fikr doirasi keng va tarbiyali insongina o'zini erkin va baxtli his qiladi.

Har qanday davlat o'z xalqining taraqqiyot bosqichiga mos ijtimoiy tuzumni tanlab oladi. Davlatning ma'rifat tizimi jamiyat tanlab olgan tuzumning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bizning bugungi maorif tizimimiz demokratik davlat va bozor munosabatlariga asoslangan bo'lishi zarur. **O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov birinchi chaqiriq Respublika Oliy Majlisining birinchi sessiyasida qilgan ma'ruzasida hur O'zbekistonda Demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga, amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlarning asosiy ishtirokchilari bo'lgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyatini butunlay yangicha qaror toptirish lozimligini aytgan edi. Bu fikrlarni Birinchi Prezidentimizning keyingi chiqishlarida ham bir necha bor ta'kidlandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tarixiy o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish va kadrlar masalasini O'zbekistonning XXI asrda rivojlanishining eng ustivor yo'nalishlardan biri sifatida olg'a suradi.**

Kelajagi buyuk davlatni qurayotganlar tafakkuri, axloqi yangi iqtisodiy munosabatlarni tarkib toptirishga va moddiy ne'matlar yaratishga astoydil yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga ega bo'lgan insonni tarbiyalash ta'lim-tarbiya tizimi zimmasiga yuklatilgan.

Yaqin o'tmishimizdagi «sovet pedagogikasi»ning ta'lim-tarbiya berish usullari barcha odamlar bir xil qobiliyatga, bir xil